

## TALABALARGA BILIM BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING AXAMIYATI

*Xusainova Xusnidaxon Saloyidinovna*

*Namangtan to`qimachilik sanoati instituti*

*xusnidaxonxusainova@gmail.com*

**Annotatsiya:** Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim tizimi, pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalilanildi.

**Kalit so‘zlar:** Strategiya, metodologiya, kompetentlik, innovatsion texnologiyalar, interfaol.

**Аннотация:** Инновационные педагогические технологии подразумевают внесение инноваций и изменений в образовательную систему, педагогический процесс, деятельность преподавателей и учащихся, причем при реализации этого процесса используются преимущественно интерактивные методы

**Ключевые слова:** Стратегия, методология, компетентность, инновационные технологии, интерактив.

**Abstract:** Innovative pedagogical technologies mean introducing innovations and changes to the educational system, pedagogical process, and the activities of teachers and students, and mainly interactive methods are used in the implementation of this process.

**Key words:** Strategy, methodology, competence, innovative technologies, interactive.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belganganadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ma’lumki, uzlusiz va uzviylik ta’lim tizimida ortiqcha takroriylikka chek qo‘yib, avvalo, jamiyatning ma’naviy va intelektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy – texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqishning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o‘z kasbiy tayyorgarligini, maxorati kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Ma'lumki an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan. Bunda darsning markazida o'qituvchi turib, talabalar deyarli dars jarayonida tinglovchi vazifasini bajarar edi. Bunday usul talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbus ko'rsatish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga katta imkon bermas edi.

Endilikda innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kuchaydi. O'quv jarayoniga interaktik ta'lim, ya'ni bir-biridan o'rghanishga yo'naltirilgan ta'lim kirib keldi. Interaktiv ta'lim bu:

- strategiya va metodologiya;
- muntazam muloqotga asoslangan uslublar tizimi;
- hamkorlikdagi va faol ishtirokdagi ta'lBu ta'limda auditoriya markazida o'qituvchi emas, balki talabalar turadi va ular dars mavzusi bo'yicha muammolarni o'qituvchi bilan birgalikda xal etishadi. Talabalar mavzu bo'yicha materiallarni o'zlari qidirib topishadi, mustaqil o'rghanib tahlil qilishadi, o'z bilimlarini baholashadi va to'g'ri xulosalar chiqarishga intilishadi. O'qituvchi bu talabaning va talabalarning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab kursdoshlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlash va harakat qilishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Natijada o'quv tarbiya jarayonida markaziy ishtirokchiga aylanadi.

Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? – degan savol olim va pedagoglarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirib urinib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bu yerda ko'proq o'quv jarayonini shunday darajaga olib chiqish uchun o'qituvchi qanday xususiyalarga ega bo'lishi kerak degan savolga mavzuga yondashgan holda javob izlaymiz. Fikrimizcha boshqa mavzularga ham shunday yondashuv qilish kafolatlangan darsni qayta ishlashga imkon yaratadi, ya'ni kafolatlangan dars rejasini bo'yicha boshqa o'qituvchi ham dars o'tsa kafolat darajasi ma'lum miqdorda saqlanib qoladi, balki boshqa o'qituvchining qobiliyatiga qarab ortishi ham mumkin. Boshqacha aytganda pedagogik texnologiyaning sifat va samaradorligi talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimi larni o'qitayotganligiga bog'liq.

Innovatsion (yangilik kiritilgan, yangilangan, nimanidir o'zgartirish hisobiga paydo bo'lgan) pedagogik texnologiyalar ta'lim tizimi, pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishni anglatib, bu jarayonni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalilanadi.

Interfaol (interaktiv) ta'limning mohiyati, yuqorida aytganimizdek, talabalarni bir-birlaridan o'rghanishlariga yo'naltirilgan ta'lim *ekanligi*. Interfaol uslublar hozirda

bir necha yuzni tashkil etib, o‘qituvchini vazifasi ular ichidan o‘z darsi uchun samara beradiganini tanlash va uni ishlatish yo‘llarini topishdan iboratdir.

Tanlash va ishlatish jarayonida quyidagi xususiyatlar saqlanib qolishi zarur:

- talabaning dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talabalarning o‘quv jarayonida fanga bo‘lgan qiziqishlarini doimiyligini ta’minlanishi;
- talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- pedagog va talabalarning xamkorlikdagi faoliyatini muntazam tashkil etilishi kerak.

Bunday pedagogik jarayonni amalga oshirish va unda qatnashish uchun o‘qituvchi qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak? – degan savollarga tanlagan mavzu bo‘yicha javob berib bu paragrafni tugatamiz.

Bu savollarga to‘la javob berish juda katta hajmdagi materialni tahlil qilishga olib keladi. Biz bu yerda ba’zi elementlar bilan chegaralanamiz. Bu chegaralanish bilan darsni tashkil etish mumkin.

Kafolatlangan pedagogik jarayonni o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi uchun, birinchidan, u o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiyani kilib chiqish tarixi va mohiyatini tushunishi kerak. Bu haqida biz yuqoridaq zaruriy ma’lumotlarni berdik deb hisoblaylik. Undan tashqari o‘qituvchida pedagogik kompetentlik va kreativlik xususiyatlari bo‘lishi zarur. Yana o‘qituvchida pedagogik mahorati, texnikasi, madaniyati va boshqaruv stillari shakllangan bo‘lishi kerak. Bu tushunchalar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni darslik, o‘quv qo’llanma va maxsus adabiyotlarga havola qilgan holda mavzuga moslagan holda ma’lum bir, to‘la bo‘limgan, javoblar bilan chegaralanamiz.

Pedagogik kompetentlik bu – pedagogik bilimdonlik, malakalilik, tajribalilik, ma’suliyatlilik, uddaburonlik, yuksak pedagogik mahorat, etikaga ega bo‘lish, talabalarni va o‘z kasbini sevish, innovatsion yondashgan holda o‘quv jarayonini tashkil etishni bildiradi.

Mavzu bo‘yicha pedagogik kompetentlikka ega bo‘lish uchun o‘qituvchi sonli ketma-ketliklar va ularning limitiga oid materiallarni bilishi, sonli qator tushunchasi, uni yaqinlashishi, yaqinlashuvchi sonli qatorlar xossalalarini bilishi, sonli qatorlar yaqinlashishini zaruriy va yetarli shartlarini bilishi, taqqoslash alomatlarini bilishi kerak. Ma’ruza o‘tish bo‘yicha tajribasi bo‘lishi zarur. Ma’ruza tipini darsga qarab tanlay olishi kerak. Ushbu mavzuni bayon qilishda biz «Blokli ma’ruza» tipini tanlaymiz. Unga asosan ma’ruza bir necha bo‘lakdan iborat bo‘ladi va xar bir bo‘lim tugagandan so‘ng talabalarni yozishdan to‘xtatib bo‘lak bo‘yicha tanlangan interfaol usullar yordamida ularni aktivlashtiriladi va keyingi bo‘lakka o‘tiladi.

Demak, yuqoridagi xususiyatlarga ega bo‘limgan o‘qituvchi darsni meyorga yetkazib o‘ta olmaydi degan qismiy xulosa kelib chiqadi.

Pedagogik kreativlik – pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonini samaradorligi sifatini oshirishga betakror, yangi g‘oyalar, yondashuvlar yaratishi, nostonart yechimlar qabul qilishi, o‘z faoliyatini ijodkorlik bilan tashkil etish qobiliyatini anglatadi.

Ushbu mavzuda o‘qituvchi bu qobiliyatini darsga mos effektiv natija beradigan interfaol usullarni tanlashni bilishi va keyslar tuza olishi bilan namoyon qilishi mumkin. *Biz* quyidagi interfaol usullarni qo‘llash mavzuni bayon qilishda samara beradi deb hisoblaymiz:

- «Blokli ma’ruza»ni tanlash
- Dars berishda tasodify ravishda talabalardan tayyorlangan tarqatma materiallar yordamida dars uchun zaruriy materiallarni takrorlash;
- Darsni 6 ta blokka bo‘lib o‘tish va har bir blok tugagandan so‘ng interfaol usullar yordamida talabalarni aktivlashtirish. Interfaol usullar nomini texnologik xaritaga ilova sifatida keltirish;
- BLI bo‘yicha 6 ta slaydli taqdimot tayyorlash.
- Talabalarni mustaqil ishlari uchun keyslar va testlar tuzish (bitta to‘g‘ri javobli va bir nechta to‘g‘ri javobli) o‘qituvchining navbatdagi ijodiy faoliyati hisoblanadi

Mavzu bo‘yicha pedagogik kompetentlik va kreativlik, sifat va samaradorlik, interaktiv o‘qitish usullari va B.Bluim buyicha kafolatlangan o‘qitish kabi tushunchalar matematika tilga o‘tkazib bayon qilinadi. innovatsion pedagogik texnologiyalarning matematik tahlil fanini o‘qitishga moslashgan usullari tanlanadi va amalda qo‘llaniladi. BLIning xulosa va bildirilgan takliflaridan ta’lim muassasalari faoliyatida, matematika fanlarini o‘qitishda va o‘qitishni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Sh.S.Shoimova,M.K.Xoshimova „,Ta’lim texnologiyalari.Toshkent 1920y
- 2.N.Aliyeva,,O‘quvchilarga ta’lim berishda innavatsion texnologiyalar”.
- 3.T. Azlarov, H.Mansurov „ Matematik analiz ”1 qism. Toshkent: O‘qituvchi. 1994 y.
4. Shoimqulov B.A.,Tuychiyev T.T., Djumaboyev D.X. „Matematik analizdan mustaqil ishlari”, 2008y.